



INNOVATIVE APPROACHES TO IMPLEMENTATION IDEAS FOR A NEW UZBEKISTAN

Shermukhammad Eshbekovich Ernazarov

Associate Professor, National University of Uzbekistan

E-mail: shernazarov@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: strategy of new Uzbekistan, national idea, innovation, globalization, third renaissance, national ideology, spirituality.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: this article analyzes the main idea of the new Uzbek strategy at the present stage of Uzbekistan's development, that is, the great goal is from national revival to national uplift, the main task of the idea of national uplift, the main features inherent in the new stage of national development, the innovative foundations of the new Uzbek strategy, its theoretical and historical significance.

YANGI O'ZBEKISTON G'OYASINI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSON YONDASHUVLAR

Shermuxammad Eshbekovich Ernazarov

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

E-mail: shernazarov@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlari: yangi O'zbekiston strategiyasi, milliy g'oya, innovatsiya, globallashuv, uchinchi Renessans, milliy mafkura, ma'naviyat.

Annotasiya: ushbu maqolada O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida Yangi O'zbekiston strategiyasi, ya'ni milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad bosh g'oya sifatida maydonga chiqayotganligi, Milliy yuksalish g'oyasining asosiy vazifasi, milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xos asosiy xususiyatlar, Yangi O'zbekiston strategiyasining innovatsion asoslari, uning nazariy va tarixiy ahamiyati tahlil qilingan.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РЕАЛИЗАЦИИ ИДЕИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Шермухаммат Эшбекович Эрназаров

Доцент Национального университета Узбекистана

E-mail: shernazarov@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, стратегия нового Узбекистана, третье возрождение, инновации, национальная идея, национальная идеология, духовность.

Аннотация: в данной статье анализируются главная идея стратегии Новой Узбекистана на современном этапе развития Узбекистана, то есть великая цель – от национального возрождения к национальному подъему, главная задача идеи национального подъема, основные черты, присущие новому этапу национального развития, инновационные основы Новой стратегии Узбекистана, ее теоретическое и историческое значение.

Kirish. Hozirgi paytda dunyo miqyosida murakkab tarzda ro'y berayotgan global jarayonlarning O'zbekiston jamiyatiga xos ma'naviy-ma'rifiy tamoyillar tizimiga ta'sirini chuqur o'rganish, bu sohada paydo bo'layotgan muommalarning samarali yechimlarini topish ehtiyoji kuchayib, ushbu yo'nalishdagi masalalarni tizimli tadqiq qilish vazifalari nihoyatda dolzarblashib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev alohida ta'kidlagani kabi, "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analarga amal qilib, teran anglagan holda, qa'tiy islohatlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohatlar amalga oshirilmoqda" [1].

Mamlakatda siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, jamiyatning yangi qiyofasida mos bo'ladigan innovatsion qadryatlar tizimi shakllanishining huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" qonuni [2] mamlakatda innovatsion tamoyillar tizimi shakllanishining eng asosiy huquqiy hujjati deyish mumkin. Unda ushbu tizim shakllanish uchun asos bo'ladigan tayanch tushunchalar ta'riflab berilgan, xususan: innovatsiya - fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma.

"O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi"da [3] belgilangan yettita ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirilishi natijasida 24 ta

xalqaro reyting va indekslarda respublika o'rnini yaxshilash, jumladan, 2030 yilda iqtisodiy erkinlik indeksini 140 o'rindan 70 o'ringa, statistika salohiyati indeksini 124 o'rindan 50 o'ringa, global innovatsion indeksini 50 o'ringa, biznesni yuritish indeksini 76 o'rindan 20 o'ringa, sanoat raqobatbardoshligi indeksi 70 o'ringa, inson kamoloti indeksini 105 o'rindan 40 o'ringa, logistika samaradorligi indeksini 99 o'rindan 50 o'ringa, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotning kredit reytingini uchinchi pog'onaga ko'tarish prognoz qilinmoqda.

Mavzuga oid manba va adabiyotlar tahlili. Jamiyatda innovatsion qadryatlar tizimi shakllanishining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilayotgan muhim hujjatlar qatorida O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5264-son farmoni va 2017 yil 1 noyabrdagi PK-3365-son "Ilmiy-tadqiqot muassasalarning infratuzulmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 7 maydagi PK-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari [4] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 martdagi "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori [5] buning yaqqol misolidir.

Bu hujjatlar sohaga oid jahon tajribasi va ajdodlar merosi asosida shakllangan, mamlakatning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li tadrijiy tarzda amalga oshayotganini isbotlaydigan, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichining mazmun-mohiyatini belgilaydigan chuqur nazariy xulosalar va keng qamrovli amaliy ko'rsatmalar majmui hamdir. Eng asosiysi, ular keyingi yillarda olib borilayotgan islohatlar siyosatini amalga oshirish, har bir fuqaroning hayot yo'lini, islohatlar jarayonida zimmaga yuklatilgan ma'suliyatni, vazifaga munosabatni anglash va qadrlash yo'lida olib borilayotgan o'zgarish va yangilanishlarga naqadar tayorligini belgilaydigan hamda bugungi davr talablarini ifodalaydigan mezonlar aks etgan tarixiy hujjatlardir [6].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirishga oid konseptual g'oyalar va asarlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib anglagan holda mamlakat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashning ma'naviy-ruhiy tayanchi bo'lgan milliy g'oya konsepsiyasini ishlab chiqdi va asarlarida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorlikka erishishda

milliy g'oyaning tutgan o'rni, uning tarixi va targ'iboti tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Yangi O'zbekiston g'oyasi - milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasi yangi va ko'pqirrali tadqiqotlarni talab qiladi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatda barcha sohalarni rivojlantirish, jamiyatni yangilash va inson manfaatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida olib borilayotgan islohotlar natijadorligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lgan milliy g'oya va mafkuraviy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" № F-5465 Farmoyishida [7] milliy g'oyani rivojlantirish borasidagi ilmiy izlanishlar olib borish, nazariy tadqiqotlarni amalga oshirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida maxsus amaliy, innovatsion, fundamental davlat dasturlarini shakllantirish va bunda hozirgi davrning dolzarb g'oyaviy-mafkuraviy mavzulariga e'tiborni yanada kuchaytirishga asosiy e'tibor qaratildi.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish, odamlarda faol fuqaroliq pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirish, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, jamiyatda adolat ustuvorligini ta'minlash, xuquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirildi. Jamiyat hayotining barcha bo'g'inlarida xalq bilan muloqotning turli shakl va vositalari keng qo'llanayotgani milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash orqali milliy g'oya tamoyillarini takomillashtirishga, pirovard natijada aholi manfaatlarini va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalaridan biri innovatsion taraqqiyot, deb nomlanadi. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari borishda iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovatsion asosda rivojlantirish muhim rol uynaydi. Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz biror-bir soha rivojini tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

O'rta asrlarda yurtimiz xududidan yetishib chiqqan ulug' alloma va mutafakkirlar jahon ilm-faniga, butun insoniyat tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan. Xususan, IX-XII va XIV-XV asrlarda ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq Uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Shu bois ham, innovatsion taraqqiyot bilan xalqimizning an'anaviy milliy turmush tarzi o'rtasida o'ziga xos uyg'unlikni ta'minlash orqali O'zbekistonga xos milliy taraqqiyot modelini yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi. Milliy yuksalish g'oyasi xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatini

ro'yobga chiqarib, O'zbekistonning yangi tarixida uchinchi renessans davrining boshlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat keskin tus olib bormoqda. Bu raqobatga zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini joriy etish orqali munosib javob berish mumkin. So'nggi yillarda O'zbekiston olimlari fundamental fan va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar. Mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir. 2021 yilda YuNESKO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" degan mavzuda xalqaro forumni o'tkaziladi. Olimlar buyuk ajdodlarning ilmiy an'analarini munosib davom ettirgan holda, ilm-fanni taraqqiyotning drayveriga aylantirib, mamlakat rivojiga xizmat qiladigan muhim kashfiyotlar yaratadilar [8].

O'zbekistonni 2030 yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo'yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Mazkur maqsad ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan. 2017 yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilgani alohida ahamiyatga ega bo'lib, yangi idora ilmiy va innovatsion faoliyatga oid jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirishga, mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirmoqda [9].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi amaliyotida mamlakatda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish muhim o'rin egallaydi. Bu ko'p millatli mamlakat fuqarolari orasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'iy nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, "Shu aziz vatan barchamizniki" g'oyasining amalga oshirishini ta'minlash demakdir.

Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoev shunday dedi: "Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari"ni shakllantirishni talab etmoqda. Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur. Shu ma'noda, Ma'naviyat va ma'rifat, "Taraqqiyot strategiyasi", Islom sivilizatsiyasi markazlari, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqot institutlari haqiqiy "aql markazlari"ga aylanishi kerak" [10].

O'zbekiston Prezidenti 2019 yil 3 mayda qabul qilgan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga [11] muvofiq

quyidagilar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi (Respublika kengashi) faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi: "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish; tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish.

Markaz tegishli tashkilotlar bilan birgalikda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" ishlab chiqildi, aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yo'naltirilgan innovatsion metodlar yaratildi. Markaz huzurida "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti shaklida ta'sis etildi.

Yangi O'zbekiston g'oyasi – milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari g'oyasini xalqaro miqyosda targ'ib qilishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat va jamoatchilik darajasida O'zbekistonning xalqaro imijini shakllantirish va targ'ib qilishning yaxlit tizimini muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada eng dolzarb vazifalardan biri mamlakatning betakror imij xususiyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'lib, bular qatoriga boy madaniy, tarixiy, ma'naviy va intellektual meroslar, ko'p asrlik davlatchilik, jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shilgan e'tirof etilgan hissa, yuqori darajadagi millatlararo va dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy totuvlik, boy tabiiy resurslar, rivojlangan transport va kommunikatsiya infratizimlari, mafkuraviy dunyo qarashlardan qat'iy nazar teng huquqli hamkorlikka tayyorlik kiradi.

Mamlakatning jahon hamjamiyatida ijobiy e'tirof etilishini yanada yaxshilash va O'zbekistonning salmoqli imij salohiyatidan ustuvor iqtisodiy, ijtimoiy, investitsiyaviy, ilmiy, ma'rifiy, madaniy va boshqa vazifalarni amalga oshirishda samaraliroq darajada foydalanish borasida davlat muassasalari faoliyatini jadallashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yo'nalishdagi faoliyat davlat va jamoatchilik tuzilamalari va institutlarining yaqindan hamkorligi va muvofiqlashtirilishi orqali muntazam ravishda olib borilishi lozim.

Shu munosabat bilan 2019 yil 21 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi to'g'risida"gi Qarorda [12] quyidagi vazifalar belgilandi: xalqaro maydonda O'zbekistonning jozibali milliy brendini shakllantirish va mustahkamlash orqali mintaqaviy va global bozorlarda mahalliy tovarlar va xizmatlar eksportini ilgari surish; O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va uning jahon hamjamiyatida ijobiy qabul qilinishini kengaytirish orqali milliy suverenitet, barqarorlik va xavfsizlikni kuchaytirish; dunyoning yetakchi televidenie, radio va internet ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik o'rnatish va ular bilan xalqaro maydonda o'zbek milliy brendlari va O'zbekistonning ijobiy xalqaro imijini ilgari suruvchi qo'shma media-

mahsulotlar, reklama roliklari, hujjatli filmlar va badiiy filmlarni tayyorlash masalasini ishlab chiqish.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasini targ‘ib qilishda nodavlat va notijorat tashkilotlari ham o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shmoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2017 yildagi Farmoyishi bilan “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tashkil etildi [13]. Markaz xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy hamda ta’lim muassasalari bilan hamkorligi ham yo‘lga qo‘yilgan. Uning yana bir asosiy vazifasi – Yangi O‘zbekiston strategiyasi va uning asosidagi davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar bo‘yicha aholining fikr-mulohazalarini o‘rganish, ular yuzasidan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

“Buyuk Kelajak” Xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti (XNNT) Ekspert Kengashining asosiy maqsadlari amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga ko‘maklashish hamda turmush darajasini oshirishga, inson kapitalining sifatini yaxshilashga, uzoq muddatli investitsiyalar bozorini rivojlantirishga va davlat hokimiyati institutlarini isloh qilishga urg‘u bergan holda, «BUYUK KELAJAK» Ekspert Kengashi tomonidan ushbu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli rivojlanish modelini tayyorlash hisoblanadi [14].

2019 yil 13 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yuksalish» umummilliy harakati - nodavlat notijorat tashkiloti va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori [15] e‘lon qilindi. Qarorga muvofiq «Yuksalish» umummilliy harakati va «Taraqqiyot strategiyasi» markazi bilan birgalikda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va «Yuksalish» harakatining markaziy va mahalliy telekanallarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari ishtirokida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, davlat organlarining aholi va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligi, o‘sib kelayotgan avlodni qonunlarga, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalarini muhokama qilish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi. «Yuksalish» umummilliy harakatining asosiy maqsadi islohotlar, shu jumladan Davlat dasturlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ko‘maklashish, fuqarolar, xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va nodavlat notijorat tashkilotlarini ixtiyoriylik asosida birlashtirish hisoblanadi [16].

O‘zbekistonni rivojlantirish maqsadida «Taraqqiyot strategiyasi» markazi tashkil etilgandi va faqatgina Toshkent shahrida o‘z ofisiga ega edi. Buyuk Kelajak ekspertlar kengashi esa oliy ma’lumotli xorijdagi nufuzli tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan 250 dan ortiq vatandoshni qamrab olgan [17]. Ammo millionlab xorijdagi yurtdoshlar: talabalar, migrantlar va ularning muammolari, islohotlarga munosabatlarini eshitishning imkoni yo‘q edi. Ana shularni hisobga olib, O‘zbekiston rivoji uchun hissa qo‘shmoqchi bo‘lgan har qanday soha vakillari tashabbusini qabul qiladigan,

siyosiy ruhdan xoli bo'lgan «Yuksalish» umummilliy harakati Yangi O'zbekiston g'oyasini jahonga targ'ib qilmoqda [18].

Xulosa va takliflar. Hozirgi murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida tarix fani sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida tarix fani sohasini rivojlantirishning maqsadi milliy manfaatlarimizga mos, ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan holda, o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini ilmiy o'rganishning zamonaviy va samarali asoslarini ishlab chiqish, chuqur bilim va ko'nikmalarga ega, ijodiy va tizimli fikrlaydigan mutaxassislar, o'qituvchi va ilmiy xodimlarning yangi avlodini yetkazish, olingan ilmiy natijalarni ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarida ta'sirchan qo'llash, ilmiy natijalarni ommalashtirish va tijoratlashtirishning zamonaviy va ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlashda xizmat qiladigan tarixiy tafakkurni tarbiyalashga qaratilgan bus-butun tizim yaratish, milliy manfaatlarimiz doirasida tarixiy tafakkurni izchil shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi. // "Xalq so'zi", 2017 yil 20 sentyabr, № 189.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-son qonuni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son. <https://lex.uz/docs/4910391>.
3. O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida <https://regulation.gov.uz/ru/document/10120>
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5264-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12. 2017 y., 06/17/5264/0339-son.
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07. 2020 y., 03/20/630/1101-son.
6. Haitov E. Ma'naviy sohada innovatsion rivojlanishni ta'minlashning huquqiy asoslari // O'zMU xabarlari, 2020, 1/6/1, -B. 153.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” № F-5465 Farmoyishi. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 9 aprel / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.04.2019 y., 08/19/5464/2891-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasi. // Yangi O‘zbekiston, 2020 yil 30 dekabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020 y., 06/20/6097/1431-son. <https://lex.uz/docs/5073447>.
10. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 19 yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi // Yangi O‘zbekiston, 2021 yil 20 yanvar.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 mayda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” №PQ-4307 qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2019 yil 6 may, 18-son, 353-modda.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 noyabrdagi “O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi to‘g‘risida”gi ID-10375 qarori. // Xalq so‘zi, 2019 yil 22 noyabr.
13. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil 20 fevral, 7-son, 88-modda.
14. <https://buyukkelajak.uz/uz/buyuk-kelajak-xnnt/>
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Yuksalish» umummilliy harakati - nodavlat notijorat tashkiloti va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2019 yil 13 fevraldagi 124-son Qarori. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.02.2019 y., 09/19/124/2608-son.
16. <https://lex.uz/docs/4200150>
17. «Yuksalish» umummilliy harakati qanday tashkilot bo‘lishi kerak? / <https://kun.uz/18714841>
18. <https://xabar.uz/jamiyat/yuksalish-umummilliy-harakati>